

```
>>> a = 'Yulduz'
>>> b = '14'
>>> c = 'years old'
>>> print(a,b,c, sep='-', end='.')
```

```
Yulduz-14-years old.
```

Masala. Anvarga 478 + 874 amalini dasturga kiritib, hisoblash topshirig'i berildi. U qanday dastur tuzishi lozim?

```
>>> a=input().split('+')
```

```
478+874
```

```
>>> a1 = int(a[0])
```

```
>>> a2 = int(a[1])
```

```
>>> b = a1+a2
```

```
>>> print(b, end=';')
```

```
1352;
```

a=['478', '874'] satrlardan iborat qiymat.

1-element 478 va 2-element 874 ni satrdan butun qiymatga aylantirib, a1 va a2 ga yuklaydi.

478 + 874= yig'indini b ga yuklaydi.
b ning oxiriga ";" qo'yib, ekranga chiqaradi.

1. input() operatorining qanday usuli mavjud?
2. print()operatorining end='\n' argumenti nima maqsadda ishlatiladi?
3. print() operatorining sep argumenti nima maqsadda ishlatiladi?
4. input()operatorining split() usuli nima maqsadda ishlatiladi?



SAVOL VA
TOPSHIRIQLAR

1. Kutubxonaga ikkita kitob do'konidan kitoblar keltirildi. Birinchi do'kondan n dona kitob keltirildi. Ikkinchi do'kondan esa birinchi do'konga qaraganda k dona ko'p kitob keltirildi. Kutubxonaga jami qancha kitob keltirildi? Masalani yechish dasturini tuzing. n va k kattaliklar foydalanuvchi tomonidan kiritiladi.

2. Komilaga $854*89657*4587*425$ amalini dasturga kiritib, hisoblash topshirig'i berildi. U qanday dastur tuzishi lozim?



UY VAZIFASI

39-DARS. AMALIY MASHG'ULOT

Misol. k soni berilgan. Shu son xonalari sonining yig'indisini hisoblash dasturini tuzing $k(0 < k < 9999)$.

```
n = input("Enter number: k(0<k<9999) ")
n = int(n)
d1 = n % 10
d2 = n % 100 // 10
d3 = n % 1000 // 100
d4 = n // 1000
print("Result:", d1 + d2 + d3 + d4)
```

```
29
```

```
'8795'
```

```
8795
```

```
d1=8795%10=5
```

```
d2=8795%100//10=9
```

```
d3=8795%1000//100=7
```

```
d4=8795//1000=8
```

```
5+9+7+8=29
```